



## MOVAROUNNAHRDA ABDULLOH IBN MUBORAKNING HADISSHUNOSLIK RIVOJIDAGI O'RNI

**Ulug'murotov Akmal Ziyodullayevich**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
tayanch doktoranti.*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada Movarunnahirdagi daslabgi hadis ilmi rivojiga hissa qo'shgan muhaddis haqida so'z yuritiladi. Darhaqiqat, Ibn Muborak sunnatni mustahkamlashda buyuk martabaga erishdi. Bu olimni : "Agar biron kishi Ibn Muborak to'g'risida noloyiq gap gapirsa, Islom diniga tana tosh otgan bo'ladi", deyilgan. U hadislar yozar va ularning sahihlarini g'ayri sahihlardan ajratar edi.*

**Kalit so'zlar:** "Al-Muvatto", ashabur-ra'ylar, shar'iy hukmlar, "Tarix", tobe'in, to'rt ming, roviylar, fiqh.

Movarounnahrda hadis ilmi vujudga kelgan davrdan boshlab muhaddis olimlar ilm talab qilib boshqa mamlakatlarga safar qilganlar bu esa ikki daryo oraligidagi yerlarda hadis ilmining rivojlanishi uchun eng asosiy sabab buldi. Tarixiy manbalada keltirilishicha sakkizinchi asrning o'rtalaridan o'n beshinchi asrgacha Movarounnahrning ko'pgina shaharlarida minglab muhaddislar faoliyat yuritgan. Hadis ilmi maktabining rivojlanishida bir qator muhaddislar, shu jumladan Abdulloh ibn Muborakning hissasi juda kattadir.

Abu Abdurahmon Abdulloh ibn Muborak ibn Vozih Marvaziy al-Hanzaliy ism-sharifi bilan butun Islom olamiga tanilgan bu atoqli olim hijriy 118 yili Movarunnahrning mashhur Marv shahrida tug'ilgan. Ulamolar Ibn Muborakning tavallud sanasida ixtilof qilishgan. Abdon ibn Usmon: "Men Ibn Muborakning "119 hijriy sanada tug'ilganman" deganini eshitganman", deydi. Imom Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbal va Abu Hafs Amr ibn Ali Bohiliylar: "Abdulloh ibn Muborak 118 sanada tug'ilgan" deyishadi<sup>119</sup>.

U kishining otasi Muborak turkiy qavmlaridan, Hamadonning Bani Hanzala qabilasidagi bir kishining ozod etilgan quli bo'lgan. Onasi xorazmlik bo'lgan. Abdulloh ibn Muborakning ota-onasi haqidagi ma'lumotlarda otasi Muborak halol, ko'rkam siymoli, nihoyatda taqvoli bo'lgani, shu sababdan asli Bani Hanzala qabilasini xojasi o'zining taqvodor qizini unga turmushga bergani va ulardan taqvoni meros qilib olgan o'g'li Abdulloh tug'ilgani aytiladi.

Ibn Muborak biroz vaqt Marvda qozilik qilgan basralik Muhammad ibn Sobit Abiydan ham hadis rivoyat qilgan.

Ibn Muborakning tobe'in va taba'a tobe'inlardan arab tili, fiqh va hadis ilmlarini mukammal o'rganish uchun boshqa Islom mamlakatlariga safar qilishi zarur edi. Uning

<sup>119</sup> Imom Shamsiddin Zahabiy. Siyaru a'lomin nubalo ("Mashhur daholar siyrati" kitobida saylanma asar). Arabchadan Azizxo'ja Inoyatov tarjimai. "Hilol nashr". T.: 2017. – B. 157.



ilm olish yo'lida Marv shahrini tark qilgani haqida bog'dodlik xatib Abdon ibn Usmon shunday deydi:

“Abdulloh ilk bor 141 hijriy yili Iroqqa safar qilgan.” Shu ma'lumotga qaraganda Ibn Muborak ilm olish uchun safarlarini boshlaganda yigirma uch yoshda bo'lgan. Abbos ibn Mus'ab, asarida Ibn Muborakning shunday deganini rivoyat qiladi: “Men to'rt ming shayxdan ilm oldim. Ularning mingtasidan hadis rivoyat qildim”.

Bolalik davrining ko'p qismini ilm olishga baxshida etgan Ibn Muborak keyinchalik ham ilm talabini biron kun tark etgani yo'q. U ko'p bor haj qildi, tijorat va ilm olish bilan uzluksiz shug'ullandi. U o'z zamonasida shayxulislom, hadis ilmida hofiz, tijoratda ularning sayyidi, hayotda shijoat va saxiylikni o'zida jamlagan kishilarning biri edi. Abdulloh ibn Muborak turli ilmlarda, ayniqsa, hadis ilmida imom va muhaddislarning eng ulug'laridan edi.

Abdulloh ibn Muborak Madinaga borganida Molik ibn Anasdan fiqh ilmini o'rgandi va uning mashhur “Al-Muvatto” kitobini rivoyat qildi. U Shom ahlining fiqhi va muhaddisi bo'lgan Avzo'iydan ham fiqh va hadis ilmini o'rgandi, Yaman muhaddisi Mu'ammara ibn Rashiddan hadis eshitdi.

Fiqh va hadis ilmida o'z davrining eng peshqadam olimlaridan biriga aylangan Ibn Muborak hadis ilmi sohiblarining eng faqihlaridan hisoblanadi va bu sohada Sufyon Savriy, Avzo'iy, Ayyub Sahtiyoniy, Ibn Jurayjlar bilan bir qatorda turadi<sup>120</sup>.

Xalifa Umar ibn Abdulaziz davrigacha tobeinlar sunnatlarni (shar'iy hukmlarni) yozishga qiynalishar edi. Hijriy ikkinchi asrning ikkinchi yarmi boshida shar'iy hukmlarni yozish masalasida imomlar turlicha fikrda edilar, chunki Kalomulloh bilan hadisi nabaviyning aralashib ketishi yoki hadis bilan tobeinlarning fikrlari aralashib ketishi xavotiri sunnatlarni yozishda ancha qiyinchilik tug'dirar edi. Mana shu ilmiy vaziyat Ibn Muborakning sunnatni jamlash va uni har xil nuqsonlardan tozalash, uni kitob qilib yozish yoki alohida boblarga ajratish sohasida tinmay mehnat qilishga undadi.

Darhaqiqat, Ibn Muborak sunnatni mustahkamlashda buyuk martabaga erishdi. Hatto u kishi to'g'risida: “Agar biron kishi Ibn Muborak to'g'risida noloyiq gap gapirsa, Islom diniga tuxmat qilgan bo'ladi”, deyishgan ekan. U hadislar yozar va ularning sahihlarini g'ayri sahihlardan ajratar edi.

Ibn Muborak ilm talabida va uni tarqatish maqsadida Bog'dodga bir necha marotaba kelgan. Shunda u erning ilg'or fikrli kishilaridan Abdulloh Roziy Taymiy Hofiz, Hasan Marvaziy, Ali ibn Ishoq Salmo Marvaziy, Ibn Muborakning yaqin do'stlaridan Darkiniy va Anbasa ibn Sa'id Umaviy Qurayshiyilar undan hadis eshitishar edi. Abdulloh ibn Muborak davrida undan ko'ra ilmga intiluvchan, haris kishi bo'lmagan. U kuchli eslab qolish qobiliyatiga qaramay, hadislarini yozish, kitob tuzishdan erinmas edi. U 141 hijriy yilda birinchi bor ilm talabi yo'lida safarga chiqqan edi va bu yo'lda mashaqqat chekib, mehnat qildi.

<sup>120</sup> Imom Shamsiddin Zahabiy. Siyaru a'lomin nubalo (“Mashhur daholar siyrati” kitobida n saylanma asar). Arabchadan Azizxo'ja Inoyatov tarjimasi. “Hilol nashr”. T.: 2017 – B. 125



Ibn Sa'd uning ko'plab kitob tasnif etgani to'g'risida xabar beradi. Albatta bu kitoblardan ko'p kishi foydalangan. Bu haqda Abu Abdulloh Zahabiy Yahyo ibn Odam aytadi: "Bir hadisni Muborakning kitobidan topmasam, undan umid uzar edim va boshqa izlamas edim". Uning hadis kitoblarida yigirma ming hadis bo'lgan.

Shu davrning eng ulug' muhaddislari ham Ibn Muborakning kitoblariga muhtoj edilar. Hadis ilmining sultoni imom Buxoriy ilk bor hadis eshitganida va Ibn Muborakning tasniflarini yod olganda yosh bola edi. Bu haqda u shunday degan edi: "O'n olti yoshga kirganimda Abdulloh ibn Muborak Marvaziy va Vake' ibn Jarroh ibn Mulayh Ravoiyning kitoblarini to'liq yod olib, ashabur-ra'ylarning kalomlarini bilib olganman. Shundan keyin validam va akam Ahmad bilan muborak haj safariga yo'l oldim".

Abdulloh ibn Muborak umr bo'yi ilm talabida bo'lgani uchun uning ustozlari ham nihoyatda ko'p bo'lgan. Roviylarning aytishicha, Ibn Muborak to'rt ming shayxdan hadis to'plagan va ularning mingtasidan hadis rivoyat qilgan. Bir o'rinda aytadiki: "Men bir ming bir yuz shayxdan hadis yozib oldim. Ular ichida ulug'lardan Sufyon Savriy ham bor edi." Darhaqiqat, Ibn Muborak juda ko'p tobe'inlar bilan uchrashib, ulardan hadis rivoyat qilgan. Ustozlarini ko'pchiligi esa taba' tobe'inlarning ulug'laridan edi.

Abdulloh ibn Muborakning ilk ustozlari Robi' ibn Anas Xurosoniy edi. Xurosoniy zindonda bo'lganida ilojini topgan holda u kishini oldilariga kirib, qirqtacha hadis eshitishga muyassar bo'lgan. Ahli hadis ijmo'si bilan u kishining hadislarini hujjat, butunligicha olinadi. Rivoyatlari barcha mo'tabar hadis kitoblarida mavjud.

Bulardan tashqari Ibn Muborakni tobe'inlarning ulug'laridan ham ustozlari juda ko'p bo'lgan. Iroqda fiqh ahlining imomi Abu Hanifa xuzurlarida Ibn Muborak fiqh ilmidan bahramand bo'ldi. Ibn Muborak Madinaga keganida esa Molik ibn Anas bilan hamnashin bo'lib, u huzurida fiqh ilmidan dars oldi. Ibn Muborak avvalida fiqh ilmi sohasida Abu Hanifadan ta'lim olgan bo'lsa-da, keyinchalik Sufyon Savriy, Molik ibn Anas va Avzo'iyalar huzurida fiqh ilmidan bahramand bo'ldi. Ibn Farhun Ya'muriy Molikiy mashriq ahli ichida Ibn Muborakni Molik ibn Anasning ashoblari jumlasidan, deb zikr qiladi.

Ibn Muborakni ustozlari singari shogirdlari ham juda ko'p bo'lgan. Masalan, Buxoroda Muhammad ibn Salom ibn Faraj Salmo, Movarounnahrda buyuk muhaddis Abu Abdulloh Buxoriyning otasi Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'iyra Ju'fiy, shuningdik Naysobur, Hirot, Balh, Kufa, Basra, Misr, Marv va boshqa juda ko'p joylarda ham shogirdlari undan tahsil olishgan.

Ibn Muborakning shogirdlari shu darajada ko'p ediki, ularning hisobiga etish qiyin. Shogirdlari qatoriga nafaqat uning tengqurlari yoki zamondoshlari, hatto Sufyon Savriy va boshqa buyuk allomalar kabi o'zi ilm o'rgangan ustozlarini ham aytish mumkin. Bu xususda mashhur tarixchi Shamsiddin Zahabiy shunday degan: "Uning shogirdlari ko'pligining sababi shundaki, Ibn Muborak yoshlik davridan boshlab ilmiy faoliyat rivojlangan ko'plab mamlakatlarga safar qilib, o'zi borgan shahar va qishloqlar,



hatto kichik makonlarda ham jamoat o'rtasida hadis aytib odamlarga etkazar edi. Shu boisdan turli iqlimlarda uning shogirdlari ko'p bo'lgan"<sup>121</sup>.

### XULOSA

Diniy ilmlarning boshqa sohalari kabi hadis bobida ham Abdulloh ibn Muborak zamonasining peshqadam, zohid taqvodor, ko'zga ko'ringan faqih bo'lib, she'rlari o'tmishdagi ulug'larning xabarlari va asarlarini o'z ichiga olgan shoir bo'lishidan tashqari, hadis ilm peshvolaridan, muhaddislar amiri deya sifatlangan ulug' muhaddislardan edi.

Ibn Muborak ilmda imom, shayxulislom bo'lib, u o'z asrining ummati uchun nasihatgo'yi, zohidi, saxovatli taqvodori bo'lishligi bilan birga shijoatli edi. Mashriq va mag'ribning olimi hadis ilmida amirul mo'minin edi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arab tilidan Hoji Abdulg'afur Razzoq Buxoriy va Komiljon Rahimovlar tarjimasi. "Makorim ul-axloq". – "Buxoro" nashriyoti, 2003. – 29 b.
2. Ahmad Ali Sobit Xatib Bag'dodiy. Sharaf ashabu al-hadis. – Anqara: Kulliyatu-al-ila hiya, 1969. – 235 b.
3. Abu Tohir Silafiy. Al-Arbain al-buldoniya. – Dimashq: Dor al-Bayrutiy, 1992. – 45 b.
4. Ahmad Ali Sobit Xatib Bag'dodiy. Sharaf ashabu al-hadis. – Anqar: Kulliyatu-al-ila hiya, 1969. – 167 b.
5. Az-Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo. – Bayrut: Dor al-fikr. 1997. – 98 b.
6. Abd ibn Humayd Keshiy. Al-Muntaxab min Musnadi Abd ibn Humayd Abdulloh Ahmad ibn Ibrohim Abu Aynayni taxriji. – Iroq: Maktaba Ibn Abbos, 2009. Muxlif bani Urf. Qita'tu min tafsiri imom Abd ibn Humayd. – Bayrut: Dor al-xazm, 2004. – 203 b.

<sup>121</sup> Imom Shamsiddin Zahabiy. Siyar a'lomin nubalo ("Mashhur daholar siyrati" kitobida n saylanma asar). Arabchadan Azizxo'ja Inoyatov tarjimasi. "Hilol nashr". T.: 2017. – B.123